




O‘ZBEKISTON – MALAYZIYA KO‘P QIRRALI MUNOSABATLARI YANADA KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziya

Bosh vazirining o‘rinbosari, energetik o‘tish va suv resurslarini transformatsiya qilish vaziri

Fadilloh bin Yusuf boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Malayziyaning nufuzli delegatsiyasi ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazish hamda Samarqand shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Davlat xizmati bo‘yicha forumida ishtirok etish uchun rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turibdi.

Uchrashuv avvalida Fadilloh bin Yusuf davlatimiz rahbariga Bosh vazir Anvar Ibrohimning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Malayziya ko‘p qirrali munosabatlarini joriy yil fevral oyida Kuala-Lumpurga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrifda erishilgan kelishuvlar doirasida yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Turli darajalardagi aloqalar, tashriflar va almashinuvlar faollashgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash hajmi 25 foizga oshdi. Qo‘shma korxonalar soni va aviaqatnovlar ko‘paydi. 24-iyun kuni ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokida biznes forumi bo‘lib o‘tadi.

Iqtisodiy hamkorlikda mavjud salohiyatni ro‘yobga chiqarish hamda savdo, innovatsiyalar, “yashil” energetika, neft-gaz va kimyo, geologiya, suv resurslarini boshqarish, elektronika va yarimo‘tkazgichlar sanoati, sog‘liqni saqlash, kadrlar tayyorlash, ziyorat turizmini rivojlantirish va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalarini faol ilgari surish muhimligi qayd etildi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN MO‘G‘ULISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning taklifiga binoan 24-25-iyun kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Ulan-Bator shahrida oliy darajadagi ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston bilan Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi do‘stlik va amaliy hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini kengaytirish, sanoat tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi, konchilik, transport sohalari va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish e‘tibor markazida bo‘ladi.

Sammit yakunida kelishuvlar to‘plami qabul qilinishi kutilmoqda.

O‘zA

“YASHIL” ENERGETIKA – IQTISODIYOTNING ASOSIY QUVVAT MANBAI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-iyun kuni yirik sanoat korxonalarini “yashil” energiya bilan ta‘minlash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror quvvat manbalari bilan ta‘minlash maqsadida “yashil” energetika jadal rivojlantirilmog‘da. Qisqa davrda bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib keldi. Yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi avvalgi 59 milliarddan hozirda 82 milliard kilovatt-soatga yetdi.

2030-yilga borib, yurtimiz aholisi 41 milliondan, iqtisodiyot hajmi 200 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Tabiiyki, bu elektr energiyasiga qo‘shimcha talab tug‘diradi. Shuning uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng ishga solish choralari ko‘rilmoqda.

Taqdimotda bu yil amalga oshirilayotgan loyihalar va yaqin kelajakdagi rejalar haqida axborot berildi. Ulardan asosiy maqsad generatsiya, modernizatsiya va energiya samaradorlikdirl.

Xususan, yil yakunigacha 12 ta quyosh va 4 ta shamol elektr stansiyasi, 12 ta energiya saqlash tizimi ishga tushiriladi. Ularga jami investitsiya hajmi 5 milliard dollardan ziyod bo‘lib, salkam 9 milliard kilovatt-soat quvvatga ega bo‘ladi. Shuningdek, bu yil umumiy qiymati 7 milliard 200 million dollarlik yana 11 ta loyiha qurilishi boshlanadi.

Energiyani nafaqat ishlab chiqarish, balki tejash ham juda muhim. Davlatimiz rahbari tomonidan energiya isrofini kamaytirish, ayniqsa, yirik sanoat korxonalarida tejamkor uskunalar o‘rnatish vazifasi qo‘yilgan.

Yurtimizda jami elektr iste‘molining uchdan bir qismi 18 ta tarmoqqa to‘g‘ri keladi. Masalan, suv xo‘jaligidagi nasoslarga yiliga 6,5 milliard kilovatt-soat elektr sarflanyapti.

Shu bois, 12 ta yirik nasosni modernizatsiya qilib, har biriga 75-100 megavattli quyosh stansiyasi hamda 50 megavattli saqlash qurilmasi o‘rnatish vazifasi belgilandi. Natijada nasoslarning elektr sarfi yiliga 2 milliard kilovatt-soatga kamayib, 4,5 milliard kilovattga tushadi. Bu ishlar, avvalo, suv chiqarish tannarxi baland bo‘lgan Qarshi magistral kanalidan boshlanadi.

Neft-gaz korxonalarida ham 240 megavattli quyosh stansiyasi va 300 megavattli saqlash qurilmalari o‘rnatib, kamida 600 million kilovatt-soat elektr olish imkoniyati bor.

Umuman, yig‘ilishda elektr iste‘moli yuqori 18 ta tarmoqni o‘zini o‘zi energiya bilan ta‘minlaydigan tizimga o‘tkazish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Ijtimoiy muassasalarda quyosh energiyasidan foydalanish borasidagi ishlar haqida ham axborot berildi.

O‘zA

TASHQI SAVDO VA TRANSPORT-LOGISTIKA SOHALARI TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashqi savdo va transport-logistika sohalarida kechiktirib bo‘lmaydigan choralar muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

So‘nggi kunlarda Yaqin Sharqda ro‘y bergan harbiy harakatlar shundoq ham notinch vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Bu O‘zbekistonning jahonga chiqish yo‘llariga va tashqi savdo aloqalariga salbiy ta‘sir etmay qolmaydi.

Shu bois, vaziyatni to‘g‘ri baholab, tashqi savdo, investitsiya, transport sohalarida tezkor choralar ko‘rish shartligi qayd etildi.

Xususan, eksport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, yuklarni boshqa xavfsiz portlarga ko‘chirish zarur. Bu esa dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, tashish xarajatining 30 foizgacha oshishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, hamkor davlatlar

bilan muqobil yo‘llarni kelishish, eksportchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Transport vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda boshqa daxldor idoralar rahbarlariga tadbirkorlik subyektlari bilan yaqindan ishlab, eksport-import amaliyotlariga ko‘maklashish, mahsulotlariga qo‘shimcha bozorlar topish vazifasi qo‘yildi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni izchil davom ettirish, ichki bozorda narx barqarorligini ta‘minlash muhimligi ta‘kidlandi.

O‘zA



Prezident tashrifidan so‘ng

QUYOSH PARKENTDA YUZ OCHADI

Tinchlik — muqaddas ne‘mat

Yaxshi niyat insonni yayratadi. Shunday so‘zlar borki, kunda necha bor takrorlasangiz ham ohori to‘kilmaydi. Aksincha, eshitganingiz sari huzurlanasiz. Nafaqat chehramiz, balki ko‘nglimiz ham jilmayadi. Bu niyat sizni bizga ruhiy quvvat bag‘ishlaydi, ezgu ishlarga chorlaydi.

O‘zimizga, oilamiz a‘zolari va elu yurtimiz uchun so‘ralgan tinchlik, omonlik, xotirjamlikdan totli tilak bormi?.. Zotan, Yaratganning mana shu ne‘matlari og‘ushida bo‘lsak, so‘zimizda ohang, chehramizda tiniqlik, ishimizda unum, fayzu baraka bo‘ladi. Shuning uchun ham bobolarimiz, momolarimiz duoga qo‘l ochganida, avvalo, ushbu xush niyatlar yangraydi. So‘zimiz ibtidosida ta‘kidlaganimizdek, bu totli ne‘matlar bizni hech qachon tark etmasin. Ammo bemaqsad urushlar tufayli dunyoda yuz berayotgan notinchliklar, begunoh qurbonlar, ozurda onalar faryodi, norasida go‘daklar nolası ko‘z o‘ngingizda, qulog‘ingiz ostida jaranglab, dilingizni tikandek timab turganda xotirjam yashash mumkinmi? Mana shunday

damlarda, ayniqsa, birlik, jipslik, hamjihatlik suv bilan havodek zarurligi bilindi.

Prezidentimiz joriy yil 18-iyun kuni Toshkent viloyatining so‘lim va bahavo Parkent tumaniga tashrif buyurdi. Bu yerdagi iqtisodiy rivojlanish va yangi loyihalar bilan tanishish asnosida jamoatchilik vakillari bilan uchrashib, so‘zini tinchligu xotirjamlikdek buyuk ne‘matdan boshladi. Inchinun, bu ulug‘ kunlarning qadriga yetish, shukronasini keltirib yashash har birimizning burchimiz, vazifamizdir. Davlatimiz rahbari kuyinchaklik bilan odamzod uchun tinchlik muqaddas ekani, uni asrashga butun Yer yuzi aholisi mas‘ulligini ta‘kidladi.

▶ Davomi 3-beta

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING DAVLAT XIZMATI BO‘YICHA FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli Forum qatnashchilari!

Hurmatli mehmonlar!

Avvalambor, sizlarni Markaziy Osiyo mintaqasida ilk bor o‘tkazilayotgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Davlat xizmati bo‘yicha forumining ochilishi bilan chin qalbindan samimiy muborakkob etaman.

Forumni dunyo sivilizatsiyalari chorahasida joylashgan Samarqand shahrida o‘tkazish borasidagi tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlagani uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Gutterish Janobi Oliylariga alohida minnatdorlik bildirmoqchiman.

Fursatdan foydalanib, BMT tashabbusi bilan dunyoda keng nishonlanib kelayotgan 23-iyun — Davlat xizmati kuni bilan barchangizni qizg‘in tabriklayman.

Barchamizga ayonki, bugungi kunda dunyo barqaror rivojlanishga to‘siq bo‘layotgan siyosiy ziddiyatlarning kuchayishi, iqlim o‘zgarishi, tabiiy va inson resurslarining tanqisligi, kibertahdidlar kabi global muammolar bilan to‘qnash kelmoqda.

“2030-yilga qadar 5 yil: Barqaror kelajak uchun xizmat ko‘rsatish jarayonlarini jadallashtirish” mavzusida o‘tkazilayotgan mazkur xalqaro anjuman global taraqqiyotda muhim o‘rin tutadigan davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini takomillashtirish, uni zamon bilan hamnafas holda yangi bosqichga ko‘tarish, kadrlar salohiyati va ularning faoliyat samaradorligini oshirish, bu borada xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Mazkur tadbirimizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar, dunyoning turli qit‘a va mintaqa davlatlaridan kelgan 400 ga yaqin delegatlar ishtirok etayotgani ham ushbu an‘anaviy anjumaning maqomi tobora ortib borayotganini yaqqol ko‘rsatadi.

Hurmatli Forum ishtirokchilari!

Bugungi kunda davlat boshqaruvida raqamli transformatsiyani rag‘batlantirish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishning innovatsion yechimlarini qo‘llash, davlat sektori institutlarida samaradorlikni keskin oshirish, liderlik boshqaruv uslubini rivojlantirish, uzluksiz ta‘lim olishni kengaytirish va bo‘ljak rahbarlar uchun zarur ko‘nikmalarni belgilash bo‘yicha ilg‘or tajriba almashish har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga egadir.

Dunyoga tobora ochilayotgan, jadal islohotlar yo‘lidan borayotgan va ilg‘or xalqaro tajribani keng tatbiq etayotgan, “davlat — xalq uchun” tamoyiliga qat‘iy amal qilib kelayotgan Yangi O‘zbekiston davlat xizmati sohasida global o‘zgarishlarning ajralmas bir qismiga aylanayotganini alohida ta‘kidlashni istar edim.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat xizmatini chinakamiga inklyuziv xalq

xizmatiga aylantirish bo‘yicha tizimli islohotlarni olib bormoqdamiz. Jumladan, xalqaro ekspertlar bilan birgalikda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun tayyorlandi.

Islohotlarning har bir xonadonga qadar kirib borishi uchun “mahallabay” ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi, manzilli ko‘mak va ijtimoiy himoya instituti kuchaytirildi, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga yetib, mamlakatimiz bu borada mintaqaga yetakchi o‘rinni egalladi. 700 dan ziyod davlat xizmatlari “yagona darcha” tamoyili asosida onlayn platformalar orqali amalga oshirilmog‘da.

Davlat xizmati va boshqaruvi jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish natijasida O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo‘yicha global reytingida 24 pog‘onaga, Sun‘iy intellektga tayyorlik bo‘yicha xalqaro indeksda so‘nggi bir yil ichida 17 pog‘onaga ko‘tarildi.

Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish maqsadida zamon talablariga mos iqtidorli mutaxassislarni jalb qilish va professional davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish bo‘yicha kadrlar tayyorlash klasterini tashkil etdiki.

Institutsional salohiyatni oshirish va inson kapitaliga sarmoya kiritishga ko‘maklashish uchun xalqaro tajriba asosida endaument imkoniyatlaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilmog‘da. Shu bois, sizlarni O‘zbekistonda davlat xizmatida raqamli transformatsiya bo‘yicha Global bilim markazini ochish, xalqaro Yosh yetakchilar maktabini tashkil etish kabi global tashabbuslarimizni qo‘llab-quvvatlashga chaqiramiz.

Bu tashabbuslar Hukumatlar, novatorlar va rivojlanish bo‘yicha sheriklar o‘rtasida almashuvlarni faollashtirish, kelajak avlod davlat xizmatchilarini tarbiyalash, boshqaruvda va kundalik hayotda raqamli vositalardan keng foydalanish, davlat sektorida innovatsiyalarni joriy etish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Bunday muhim tashabbus va takliflar Forum doirasida qabul qilinadigan Samarqand deklaratsiyasida o‘zining to‘liq ifodasini topishiga, mazkur muhim hujjat hammaniz uchun inklyuziv, barqaror va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan davlat xizmatiga erishish yo‘lida birgalikda harakat qilish bo‘yicha o‘ziga xos dasturilamal bo‘lishiga ishonaman.

Fursatdan foydalanib, bu ezgu yo‘lda barchangizga ulkan kuch-g‘ayrat va omadlar, Forum ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti



Shu kunlarda jahon ahlining diqqat-e’tibori yana bir karra ko’hna va hamisha navqiron Samarqandga qaratilgan. Azim kentda davlat boshqaruvi sohasidagi eng yirik xalqaro tadbirlardan biri – BMTning Davlat xizmati forumi bo’lib o’tmoqda.

Forum barqaror rivojlanishni qo’llab-quvvatlash uchun davlat xizmatini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish maqsadida 2003-yildan buyon o’tkazib kelinadi. An’anaga ko’ra, forumning har mavsumida davlat boshqaruvining muayyan bir muhim sohasiga e’tibor qaratiladi va unga global miqyosda yechimlar taklif etiladi.

Nufuzli forum bu gal O‘zbekistonda o’tayotgani yurtimizda so’nggi yillarda jamiyatimizning barcha sohalarida kechayotgan demokratik islohotlarning o’ziga xos e’tirofidir. Dunyoning barcha mintaqalaridan vazirlar va davlat xizmatiga



mas’ul organlar rahbarlari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, ilmiy doiralar, fuqarolik jamiyati, xususiy sektor vakillari va innovatsiya yetakchilari ishtirok

etayotgani tadbirning o’ziga xos ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Forum ochilishida Prezidentimizning tadbir ishtirokchilariga yo’llagan tabrigi o’qib eshittirildi. Davlatimiz rahbari 23-iyun — Davlat xizmati kuni bilan sohaning barcha vakillarini qizg’in tabriklab, davlat fuqarolik xizmati tizimini yanada rivojlantirish bo’yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Xususan, bugungi kunda davlat boshqaruvida raqamli transformatsiyani rag’batlantirish, davlat xizmatlarini ko’rsatishning innovatsion yechimlarini qo’llash, davlat sektori institutlarida samaradorlikni keskin oshirish, liderlik boshqaruv uslubini rivojlantirish, uzluksiz ta’lim olishni kengaytirish va bo’lajak rahbarlar uchun zarur ko’nikmalarni belgilash bo’yicha ilg’or tajriba almashish dolzarb ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Dunyoga tobora ochilayotgan, jadal islohotlar yo’lidan borayotgan yurtimizda davlat xizmatini chinakam inklyuziv xalq xizmatiga aylantirish bo’yicha tizimli islohotlar qilinmoqda. Bu boradagi yangilanishlar har bir xonadonga

kirib borishi uchun “mahallabay” ishlash tizimi yo’lga qo’yildi, manzilli ko’mak va ijtimoiy himoya instituti kuchaytirildi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga yetib, mamlakatimiz bu borada mintaqada yetakchi o’rinni egalladi. 700 dan ziyod davlat xizmati “yagona darcha” tamoyili asosida onlayn platformalar orqali ko’rsatilmog’da.

Davlat xizmati va boshqaruvi jarayonlarini to’liq raqamlashtirish natijasida O‘zbekiston BMTning elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo’yicha global reytingida 24 pog’ona, sun’iy intellektga tayyorlik bo’yicha xalqaro indeksda so’nggi bir yil ichida 17 pog’ona ko’tarildi. Mazkur forum ana shu yo’nalishda dunyoda shakllangan ilg’or tajribalarni ommalashtirish, o’zaro hamkorlikni kengaytirishda muhim qadamdir.

Forum mavzusi ham nihoyatda dolzarb. Ya’ni tadbir ishtirokchilari 2030-yilgacha bo’lgan davrda davlat xizmatlari ko’rsatish tizimini yanada takomillashtirish bilan bog’liq ustuvor masalalar yuzasidan fikr almashadi. Maqsad — global muammolar va o’zgaruvchan sharoitlarda davlat xizmatining rolini qayta ko’rib chiqish.

Forumda qayd etilganidek, bugungi davrda samarali, inklyuziv va innovatsion davlat xizmatlariga ehtiyoj tobora dolzarb bo’lib bormog’da. Bu boradagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida raqamlashtirish, hamkorlik va xizmatlardan teng foydalanishga erishish va yangi boshqaruv yondashuvlari qo’llanishiga alohida e’tibor qaratilmog’da.

O‘zbekistonda islohotlar “Xalq davlat idoralari egas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”, demas asosiy strategik tamoyilga asoslangani inson qadrini yuksaltirishda muhim omil bo’lmog’da. Bunday yondashuv davlat boshqaruvi tizimini tubdan o’zgartirishning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Ana shunday izchil islohotlar samarasida mamlakatimizda zamonaviy raqamli tizim yaratildi. “Raqamli hukumat” idoralararo integratsiyasha platformasi 49 ta davlat organining

390 dan ortiq veb xizmatini amalga oshiradi, ularga har kuni 216 dan ortiq axborot tizimi ulanadi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari 700 dan ortiq elektron xizmatdan foydalanish imkoniyatiga ega, ro’yxatdan o’tgan foydalanuvchilar soni 11 milliondan oshdi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida keng jamoatchilik va professional huquqshunoslar uchun ochiq, sun’iy intellektga asoslangan raqamli yordamchi muvaffaqiyatli joriy etildi.

208 ta davlat xizmatlari markazi tarmog’i respublika bo’ylab ma’muriy xizmatlardan o’layin rejimda foydalanish imkonini bermog’da.

Raqamli transformatsiya barcha asosiy yo’nalishlarni qamrab oladi — davlat xizmatlaridan tortib, elektron moliya, elektron tijorat, fiskal ma’lumotlar tahlili va raqamli iqtisodiyotning boshqa sohalarini. Bu yutuqlar nafaqat raqamli yetuklikning yuqori darajasidan, balki O‘zbekiston o’zi to’plagan tajribasi asosida dunyo mamlakatlari bilan o’rtoqlashishga tayyorligidan ham dalolat beradi.

25-iyunga qadar davom etadigan forum dasturidan davlat boshqaruvida innovatsiyalar, sohada samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlikni oshirishda raqamli vositalar va sun’iy intellektning roli, aholiga ko’rsatilayotgan xizmatlarni kengaytirish bo’yicha xalqaro tajriba, innovatsion laboratoriyalar orqali boshqaruvi transformatsiya qilish kabi mavzulardagi muhokamalar o’rin olgan. Shuningdek, raqamli boshqaruv, barqaror rivojlanish va sun’iy intellekt bo’yicha majlislar, davlat boshqaruvi va ma’lumotlar bilan ishlash bo’yicha interaktiv seminarlar, UNDESA tomonidan elektron hukumat sohasidagi yutuqlari uchun 12 davlatni taqdirlash marosimi o’tkaziladi. Tadbir ishtirokchilari O‘zbekistonning raqamlashtirish yo’nalishidagi ilg’or loyihalarini bilan tanishtiriladi.

— Eng avvalo, O‘zbekistonni davlat xizmati sohasidagi islohotlari bilan tabirlikayman. Bizningcha, davlat boshqaruvi sohasidagi har qanday islohotning yuragi davlat xizmatlari va, albatta, uni amalga oshirayotgan davlat xizmatchilaridir, — deydi BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fujii. — Xususan, chekka joylarda yashayotgan fuqarolarga davlat xizmatlari ko’rsatishi yaxshilash va raqamlashtirish borasidagi ishlarni tahsinga sazovor. Bu nafaqat texnologik taraqqiyot, balki fidoyi va zamonaviy davlat xizmatchilari mehnati samarasidir. Mavjud imkoniyatlar, elektron hukumat tizimlari, ilovalar, mobil dasturlar va foydali texnologiyalarning amaliyotga tatbiq etilayotgani ushbu islohotlarning o’ziga xos jihatlardan biri bo’lib, jahon miqyosida ham dolzarb va kerakli tajriba ekanini ta’kidlash lozim.

So’nggi yillarda mamlakatimizda sanoat rivojlanishi, investitsiyalar oqimi ko’payishi joylardagi rahbarlardan bu borada zamonaviy bilim va ko’nikma barobarida tashabbuskorlik ham talab etmog’da. Zero, innovatsiyalar faqatgina yangi texnologiyalarni tatbiq etish bilan cheklanmay, balki xizmat ko’rsatish modellari, tashkiliy madaniyat va davlat muassasalarining ish uslublarini tubdan qayta ko’rib chiqishni ham o’z ichiga oladi.

— Forum doirasida bo’lib o’tgan seminarlardan biri shu mavzuga bag’ishlangani ayni muddao bo’ldi, — deydi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi boshqarma boshlig’i Timur Abdullayev. — Chunki byudjet cheklovlarini, ijtimoiy ehtiyojlar o’zgarishi, oshkoralik va hisobdorlik talablari sharoitida davlat xizmatlarini tezkor va samarali tashkil etish zamonaviy hukumatlar oldida turgan murakkab vazifalardan biridir. Shu bois, ushbu tadbir barchamiz uchun juda qiziqarli bo’ldi. Unda davlat muassasalari va davlat xizmatchilari institutsional darajadan tortib, to kundalik faoliyatigacha bo’lgan davrda innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratishda duch keladigan asosiy to’siqlar va ularni bartaraf etish yo’llari muhokama qilindi.

Ishirokchilar davlat institutlarida innovatsiyalar va ijodkorlik madaniyatini oshirishning amaliy usullari haqida tushunchalarga ega bo’ldi. Xususan, innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlaydigan moslashuvchan va samarali tuzilmalar, mexanizm va huquqiy asoslar tahlil etildi. Shuningdek, davlat xizmatchilarining zamon talabidan kelib chiqib ish yuritishi, zamonaviy ko’nikmalarni egallashi, hamkorlikni rivojlantirish va muammolarga tez va oqilona yechim topishi muhokama qilindi.

Davlat boshqaruvida individual tashabbuslardan tashqari, tizimli, inklyuziv va sezgir institutlar yaratishga qaratilgan yondashuvlar ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Bunday tadbirlar o’zaro hamkorlikni kengaytirish, yangicha yondashuvlarni keng targ’ib etish va soha rivojini yangi bosqichga ko’tarishda samara beradi.

Forum xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, rivojlantirayotgan davlatlar o’rtasida tajriba almashish hamda davlat xizmatlaridan teng va adolati foydalanishni rag’batlantirishda muhim qadam bo’ladi. Anjuman doirasida raqamli davlat boshqaruvi (GovTech) sohasida yechimlar ekspertini qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirishga qaratilgan dasturni ishga tushirish rejalashtirilgan. Shuningdek, inklyuziv, barqaror va inson manfaatlariga qaratilgan davlat xizmatiga erishishga yo’naltirilgan muhim hujjat — Samarqand deklaratsiyasi qabul qilinishi ko’zda tutilgan.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTON – MO‘G‘ULISTON: TARIXIY YAQINLIK VA STRATEGIK MANFAATLARGA ASOSLANGAN MULOQOT

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-25-iyun kunlari davlat tashrifi bilan Mo’g‘ulistonda bo’ladi.

O‘zbekiston va Mo’g‘uliston o’rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 25-yanvarda o’rnatilgan. Shundan buyon ikki tomonlama muloqot izchil rivojlanib, do’slik rishtalari, siyosiy hamjihatlikni mustahkamlash va ko’p tomonlama hamkorlikni kengaytirishdan o’zaro manfaatdor ekanini namoyon etmog’da.

O’tgan yillar davomida tomonlar suverenitetni hurmat qilish va o’zaro tenglik asosidagi barqaror munosabatlarni o’rnatdilar.

So’nggi yillarda O‘zbekiston — Mo’g‘uliston siyosiy muloqoti faollashgani kuzatilyapti. Mo’g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux 2022-yilda SHHTning Samarqand sammitidagi ishtiroki doirasida O‘zbekistonga tashrif buyurdi. O‘zbekiston va Mo’g‘uliston yetakchilari 2023-yil 1-dekabr kuni Dubay shahrida BMTning iqlim o’zgarishi bo’yicha konferensiyasi doirasida ham uchrashdilar.

Mo’g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning 2024-yil 23-26-iyun kunlari O‘zbekistonga birinchi davlat tashrifi alohida ahamiyatga ega bo’ldi. Ikki davlat rahbarlarining samarali muzokaralari yakunlari bo’yicha davlatlararo munosabatlar va hamkorlik to’g’risidagi qo’shma bayonot, shuningdek, 14 ta hukumatlararo va boshqa hujjatlar imzolandi.

“Mo’g‘uliston biz uchun Osiyo mintaqasidagi an’anaviy va ishonchli hamkordir. O‘zbekiston — Mo’g‘uliston munosabatlari do’slik, o’zaro hurmat va qo’llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan bo’lib, konyunkturaga bog’liq emas”, dedi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif doirasidagi tadbirlar chog’ida.

Bunday asos hukumatlar, parlamentlar va vazirliklar darajasidagi ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash uchun poydevor bo’lib, mamlakatlarni bir-biriga yaqinlashtirish va hamkorlik sohalarini kengaytirishga xizmat qilmog’da.

Shu tariqa O‘zbekiston Oliy Majlisi va Mo’g‘uliston Davlat Buyuk Xuralida faoliyat yuritayotgan parlamentlararo do’slik guruhlari faol tashriflar almashinuvi bilan ajralib turadigan konstruktiv muloqotni yo’lga qo’ydi.

Idoralararo hamkorlik mexanizmlari samarali ishlamoqda. Tashqi ishlar vazirliklari o’rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar ikki tomonlama va xalqaro kun tartibidagi masalalar bo’yicha o’zaro anglashuvni mustahkamlash, xalqaro tashkilotlar doirasida yondashuvlarni muvofiqlashtirish, shuningdek, turli sohalarda

hamkorlikni kengaytirish uchun barqaror huquqiy va institutsional asosni shakllantirishga xizmat qilyapti.

Bugungi kunga qadar ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o’rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlarning 7 ta davrasi bo’lib o’tdi. So’nggi siyosiy maslahatlashuvlar 2024-yil 7-may kuni Ulan-Batorda tashkil etildi.

Ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishda diplomatik vakolatxonalar faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etmog’da. O‘zbekistonning Pekindagi elchixonasi bir vaqtning o’zida Mo’g‘ulistonda ham akkreditatsiyadan o’tgan.

2024-yil 24-iyun kuni Mo’g‘uliston Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi doirasida Mo’g‘ulistonning Toshkentdagi elchixonasining rasmiy ochilish marosimi bo’lib o’tdi. Ushbu diplomatik kanallar ikki tomonlama tashriflar tashkil etish, siyosiy maslahatlashuvlar va turli sohalardagi bitimlar loyihalarini tayyorlashga yaqindan ko’maklashyapti.

O‘zbekiston va Mo’g‘uliston an’anaviy tarzda xalqaro maydonda bir-birini faol qo’llab-quvvatlab kelmoqda. Bu, ayniqsa, BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti (Mo’g‘uliston kuzatuvchi maqomiga ega), shuningdek, ikki davlat Sharq va G’arb o’rtasidagi aloqalarni mustahkamlash imkoniyatlarini ko’rayotgan Osiyo — Yevropa muloqoti (ASEM) kabi tashkilotlar doirasida yaqqol ko’zga tashlanadi.

Mo’g‘uliston O‘zbekistonning xalqaro maydondagi Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish, mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash va aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarini bir necha bor diplomatik qo’llab-quvvatlab kelgan. O’z navbatida, O‘zbekiston Mo’g‘ulistonning barqaror energiya yechimlarini ilgari surish, atrof-muhitni muhofaza qilish va cho’l ekotizimlarini saqlash borasidagi sa’y-harakatlarini e’tirof etgan.

Mo’g‘ulistonning O‘zbekiston muhim geografik va iqtisodiy mavqega ega bo’lgan Markaziy Osiyo bilan mintaqaviy hamkorlikka qiziqishi ortib borayotgani sir emas. O‘zbekiston, o’z navbatida, Mo’g‘ulistonni Shimoli-sharqiy Osiyo bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim sherik sifatida biladi.

Xalqlarimiz o’rtasidagi iqtisodiy hamkorlik hali to’liq salohiyatini namoyon etgani yo’q, desak mulog’la bo’lmaydi. Eng asosiysi, har ikki tomon ham uni faollashtirishdan



manfaatdor ekanini ko’rsatmog’da. Mo’g‘uliston O‘zbekistonga mintaqadagi muhim savdo-iqtisodiy sherik sifatida qaraydi. O’zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror o’sib bormog’da, bu ko’rsatkich har yili o’rtacha 30 foiz oshayotgani shundan dalolat beradi.

Har ikki davlat ham muhim xomashyo, energetika va qishloq xo’jaligi sohasidagi yuqori

etilgan. Ularning 12 tasi 100 foiz Mo’g‘uliston kapitali bilan faoliyat yuritaypti.

Tomonlar qo’shma korxonalar ochish, savdo missiyalarini rivojlantirish, yarmarkalar, biznes-forumlar va investitsiyaviy konferensiyalarda ishtirok etish imkoniyatlarini doimiy tarzda ko’rib chiqyapti. 2024-yil iyun oyida Mo’g‘uliston va O‘zbekistonda savdo uylari



salohiyatga ega va mamlakatlarimiz iqtisodiyoti bir-birini to’ldiruvchi bo’lishi mumkin. Energetika, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya tejaydigan texnologiyalar yo’nalishida hamkorlik, ayniqsa, istiqbolli hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ushbu mamlakat bilan savdo va xizmat ko’rsatish sohalarida 17 ta qo’shma korxona tashkil

ochilishi, ikki davlat poytaxtlarida sanoat ko’rgazmalari o’tkazilishi e’lon qilindi.

Ayrim turdagi tovarlarga oid Imtiyozli savdo to’g’risidagi bitimni tayyorlash bo’yicha erishilgan kelishuv va bozorga kirishni osonlashtirish bo’yicha takliflar savdo-iqtisodiy sheriklikni chuqurlashtirishga qo’shimcha turki bo’ladi.

2024-yil 24-iyunda Toshkent shahrida

umumiy namunalari, o’xshash ijtimoiy tuzilmalar, lisoniy va mifologik unsurlar, an’analar, tarix va tabiatga chuqur hurmat bildirishlari turadi.

Hozirgi O‘zbekiston va Mo’g‘uliston hududida vujudga kelgan buyuk sulolalar — Xunlar davlatidan Chingizxon va Temuriylargacha bo’lgan davr nafaqat Yevrosiyoning tarixiy taqdirini belgilab

berdi, balki bir-biriga ma’muriy madaniyat, san’at, diplomatiya, harbiy strategiya bo’yicha bilimlarni uzatdi.

O‘zbekiston va Mo’g‘uliston Sharqning eng muhim madaniy va ilmiy an’analari — Buyuk ipak yo’lidan tortib, yozma va ma’naviy yodgorliklari egalandidir. Mo’g‘ulistonda Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatiga oid ko’plab qadimiy yozma manbalar mavjud. Ular O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik va qo’lyozmalar institutlarida qiziqish uyg’otmog’da. Arxeologiya, muzey ishi, restavratsiya va turizm sohasidagi hamkorlik qo’shma loyihalar, ilmiy ekspeditsiyalar, ko’rgazmalar va ta’lim dasturlari uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Xususan, 2023-yil oktabr oyida Jaloliddin Manguberdi jamg’armasi vakillari turkiy tillar, jumladan, o’zbek tilining o’zagi bo’lgan O’rxun-Enasoy bitiklari bilan bog’liq videomateriallar tayyorlash maqsadida ilmiy-amaliy safar bilan Mo’g‘ulistonga bordi.

Bugungi kunda ikkala tomon ham talabalar almashinuvi, akademik aloqalar, tarix, til va madaniyatni o’rganish bo’yicha dasturlarni rivojlantirmog’da. Turkologiya va sharqshunoslik markazlarini rivojlantirish istiqbolli yo’nalish bo’lib, Mo’g‘uliston va O‘zbekiston tajribasi ilm-fan va ta’lim sohalarini o’zaro boyityapti.

Bundan tashqari, milliy madaniyat tashkilotlari ko’magida madaniyat kunlari, gastrol safarlari, kinofestivallari, anjumanlar, ijodiy forumlar muntazam o’tkazilyapti va ular gumanitar muloqotlar asosini tashkil etayotir.

2024-yil iyun oyida Toshkentda O‘zbekiston davlat akademik xalq cholg’u asboblari orkestri va Mo’g‘uliston filarmonik orkestrining “Morin Xuur” qo’shma konserti bo’lib o’tdi. Mazkur mo’g’ul musiqiy guruhi II xalqaro maqom san’ati forumida ham ishtirok etdi.

O’z navbatida, o’tgan yilning noyabr oyida Mo’g‘uliston Madaniyat vazirligi ko’magida Mo’g‘uliston filarmoniyasida o’zbek xalqining ma’naviy-madaniy merosi taqdimoti tashkil etildi.

Bir so’z bilan aytganda, O‘zbekiston va Mo’g‘uliston o’rtasidagi munosabatlar hurmat, o’zaro manfaatdorlik va tarixiy yaqinlikka asoslangan. Har ikki davlat ham ikki tomonlama, ham ko’p tomonlama shakllarda yanada faol hamkorlikka intilishlarini namoyish etmog’da. O‘zbekiston va Mo’g‘uliston siyosiy iroda, mustahkamlangan iqtisodiy hamda gumanitar aloqalar bilan ikki tomonlama sheriklikni Markaziy va Sharqiy Osiyodagi barqaror hamda o’zaro manfaatli tarzda rivojlanish vektoriga aylantirishga qodir.

Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Mo’g‘ulistonga davlat tashrifi bu jarayonga kuchli sur’at bag’ishlab, mamlakatlarimiz xalqlari o’rtasidagi tarixiy do’slik rishtalarini mustahkamlashi va o’zbek-mo’g’ul hamkorligi tarixida yangi sahifa ochishi shubhasiz.

“Dunyo” AA



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz



Prezident tashrifidan so‘ng



O‘zimiz uyg‘onib
yashaylik! Mudroqlarni
uyg‘otib yashaylik!
Tiyrak inson oyoq ostini ham,
uzoqni ham yorqin ko‘radi.
Ana shu yorqinlik bizning
ko‘zimizda ham, ko‘nglimizda
ham bo‘lsin. Yaratgan inoyati
ila bizga toza havo, toza suvni
tog‘larimiz tutadi. O‘ftob
orazi ham tog‘larimiz
osha yuz ochadi.



Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri

Boshlanishi 1-betda

Haqiqatan, bu olamshumul bunyodkorliklar, yangidan-yangi loyihalar, son va sifat o‘shishi, turmush darajasi ortishi — xalqimizning farovon hayoti zahirida Yaratgan in‘om etgan tinchlik mujassam.

Parkentsoy saodati

Bugun “Parkent” so‘zini tilga olgan odam totli tamshanib qo‘yadi. Boisi, Parkent uzumi, shakardan shirin mevasi, mador somsasi faqat shu yerda bo‘ladi. Bundan o‘zgacha bo‘lishi mumkin emas. Bejiz bu tabarruk zamin Vosifiy, Xoja Ahror valiydek buyuklarni, katta iste‘dod va bilim sohibi, shoh va shoir Boburdek shaxslarni maftun etmagan.

Xo‘sh, Parkentsoy tegrasida yashayotgan aholining saodati nimada?

Chotqol tog‘ tizmasi bag‘ridagi buloqlar, yomg‘ir va qor suvidan jamlanib, Parkentning ko‘ksidan oqib o‘tadigan bu soy ko‘klamda kuylaydi, ayrim yillari selu toshqini bilan shovqin solib, hammani shoshiradi. Yozda suvini o‘zi sog‘inib, kuzda muloyim bo‘lib oqadi.

Sel-u toshqini bilan o‘zanini nihoyatda kengaytirib yuborgan Parkentsoy va yon-veri keyingi yillarda juda ko‘rimsiz, ayrim qismi aholi uchun xavfli, qirg‘oqlari chiqindixonaga aylanib, kishi kayfiyatini buzadigan bo‘lib qolgan.

Parkentsoy tuhfa etgan saodat shundaki, davlatimiz rahbari parkentliklarni xushxabarlar, yangiliklar olamiga olib kirdi. Bu ezgu ishlarning avvali nimadan boshlandi? Bir yil muqaddam Prezidentimiz vakili tumanga kelib, hamisha tirband, ma‘nan eskirgan, aholini qiynab yuborgan ko‘priki ustida mahalliy kengash deputatlari, mahalla faollarini yig‘ib, fikrini so‘radi. Ayni paytda davlatimiz rahbarining rejaralarini bayon qildi. To‘g‘risi, o‘sha damda bu rejalarning amalga oshishi xuddi ertakdek tuyulgan. Chunki 1979-yil fevralda qayta tashkil etilgan Parkent tumanida yillar mobaynida to‘planib kelayotgan, yechimi topilmayotgan chuqur muammolarning qisqa muddatda hal etilishiga dabdurustdan ishonish qiyin edi!

Prezidentimiz Parkent tumaniga tashrifini aynan Parkentsoy aholi massividan boshladi. Bu yerda qad rostlagan ko‘p qavatli uylardagi shart-sharoitlar bilan tanishdi. Bosh loyihaga asosan, Parkentsoy qirg‘og‘ida — umumiy maydoni 6 gektar hududda 5500 xonadonni o‘z ichiga olgan 125 ta ko‘p qavatli turar joy quriladi. Shu paytgacha ushbu uylarning 27 tasi barpo etildi. Hudud bo‘ylab 300 ta avtomobilga mo‘ljallangan ochiq avtoturargoh, 7 ta bolalar, 3 ta sog‘lomlashtirish maydonchasi, 2500 metrl velayo‘lakcha qurilyapti. Turar joylarning ko‘cha tomondagi birinchi qavatli aholiga xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, savdo do‘konlariga ajratiladi. Bu maskanlarda 700 dan ziyod yangi ish o‘rni ochiladi.

Hozir Parkentsoy yoqalab yurish kishining ko‘zini yashnatadi, hayratini oshiradi. Birinchi bosqichda soynig 4 kilometr qismi to‘liq betonlashtirildi. Soy chetida 5 kilometrli yangi yo‘l qurildi. Yangi yo‘l tuman markazidan o‘tgan asosiy ko‘chaga yondosh, bir kecha-kunduzda 10 ming avtomobilni o‘tkazish quvvatiga ega. Tabiiyki, bu Parkent shahri ichki yo‘lidagi tirbandlikni kamaytiradi.

Qolaversa, yuqorida ta‘kidlangan balandligi 50 metr bo‘lgan ko‘priknig eni 12 metrdan 21 metrga kengaytirildi. Shuningdek, piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgich barpo etildi.

Bunyodkorlikning ikkinchi bosqichida Kumushkongacha bo‘lgan o‘zan tartibga keltirilib, ochiladigan 100 gektar yerda turizm obyektlari quriladi.

Tuman ahlining ko‘ksini tog‘dek ko‘targan yana bir yangilik — “Baytqo‘rg‘on — Parkent” yo‘nalishidagi elektrlashtirilgan temir yo‘li loyihasi bo‘ldi. Bu, albatta, aholining Toshkent shahriga borishi uchun katta qulaylik yaratsa, tumanga keladigan sayyohlar uchun ham ayni muddao bo‘ladi. Unda 275 minggaacha yo‘lovchi tashilishi mo‘ljallangan. Rejaga ko‘ra, shu yil yakunigacha elektr poyezdi foydalanishga topshiriladi.

Nurli suhbat

Davlatimiz rahbarining parkentlik faollar bilan suhbatlari ham ko‘ngillarga nur olib kirdi. Samimiyat va qat‘iy ishonch bilan aytilgan fikr-mulohazalar davlatimiz rahbarining g‘amxo‘rligi, daryodilligi, mard va tantiligini



yana bir karra ko‘rsatib berdi. Prezidentimiz prinsiplariga sodiq holda shu suhbatda ham xalqni rozi qilish, muhtoj, e‘tibortalab xonadonlarga davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar xususida batafsil to‘xtaldi. Shu ma‘noda, bir hovlida 3-4 kelin bilan qisilib yashayotgan hamyurtlarimiz uchun aholi zich joylashgan mahallalarda ham 5-7 qavatli uylar quriladi. Muhtoj oilalarning uyiga quyosh panellari va suv istishda foydalanish uchun geokollektorlar o‘rnatiladi. Bu tajriba Parkentda boshlanib, kelajakda ommalashtiriladi.

Olimjonning orzulari

Kumushkon “turizm qishlog‘i” maqomini olgan dastlabki maskanlardan. Qishloqda birinchilardan bo‘lib “Sayyoh — 2000” nomi bilan mehmon uyi ochgan odam Qodirqul Yusupov bo‘ladi. Oradan yillar o‘tib, u boshlagan ishini o‘g‘li Olimjon Yusupov davom ettirdi, 16 o‘rinli mehmon uyi qurdi. Bugun uni hajman kengaytirib, 48 o‘ringa yetkazdi. Mehmon uyiga kirgan kishi u yerdagi milliylik, joziba, saranjom-sarishtalik, tabiat go‘zalligi xonadon fayzi bilan uyg‘unlashib ketganini ko‘rib, yayraydi. Ruhiyatida yengillik his qiladi.

Bir yilda 2000 sayyohni qabul qilish imkoniyatiga ega ushbu mehmon uyida 7 kishi ish bilan ta‘minlangan. Olimjon Yusupov bankdan dastlab 240 million, keyin 2 milliard, undan so‘ng 1,5 milliard so‘mlik kreditlar oldi. Auktsion orqali Kumushkon qishlog‘idagi Machitali buva ziyoratgohining ustki qismidan 1,2 gektar yerni sotib olib, loyiha qiymati 12 milliard so‘mlik yangi dam olish maskani qurilishini boshlab yubordi. Choyxona, zamonaviy kottejlar hademay ishga tushsa, bu yerda ham 72 sayyoh hordiq chiqarishi mumkin.

Davlatimiz rahbari kumushkonlik tadbirkorning xonadoniga ham tashrif buyurib, shart-sharoitlarni ko‘rdi, xonadon sohiblarining omilkorligi, ishbilarmonligidan mamnun bo‘ldi. Yanada yaxshi bo‘lishi uchun zarur maslahatlarini berdi. Shunday loyihalarni boshqa maskanlarda ham amalga oshirish kerakligini ta‘kidladi. Zero, bunday bunyodkorlik negizida ham aslida vatanparvarlik turadi.

Umuman, Toshkent viloyatidagi 1000 ga



yaqin mehmon uyi safi kun sayin ko‘payib bormoqda. Ulardagi ish o‘rinlari soni 3000 ga yaqinlashib qoldi.

Gilos emas, marvarid

Prezidentimiz Kumushkon hududidagi tog‘larga tutash joyda bunyod etilgan intensiv bog‘da ham bo‘ldi. Bu manzildagi imkoniyatlar bilan tanishdi, mirishkorlar bilan suhbatlashdi.

“Meridian Tempo” korxonasiga qarashli 54 gektar bog‘da gilos, olma, nok va malinaning intensiv bog‘lari yetishtirilmoqda. Ko‘chatlar Fransiya va Ispaniyadan keltirilgan. Daraxtlar o‘zini o‘zi changlatish xususiyatiga ega. “Aqli” agregatlar yerning nomi qochsa, avtomatik sug‘oradi. Bu bog‘ nisbatan tog‘li hududda bo‘lgani uchun mevasi boshqa joylardagidan kechroq pishadi. U yerda quyosh panellari ham o‘rnatilgan.

Hosil to‘liq eksportga chiqariladi. Bu yil 500 tonna olma, 400 tonna nok, 256 tonna gilos, 30 tonna malina yetishtirish ko‘zda tutilgan. Albatta, harakatga yarasha baraka bo‘lyapti — bog‘ sohiblari mo‘may daromad topyapti.

Oltin belning oromi xush

Prezidentimizning tuman faollari bilan suhbatda aytilgan bir fikri, ayniqsa, e‘tiborimni tordti. Chunki unda o‘ziga xos shoirona o‘xshatish bor edi. Davlatimiz rahbari g‘oyat samimiyat ila: “Olamga quyosh Yaponiyadan chiqsa, O‘zbekistonga Parkentdan chiqadi!” deya lutf etdi.

Shu ikki og‘iz so‘zda dunyo-dunyo ma‘no, yuk va mas‘uliyat borligini his qildim. Butun O‘zbekistonimiz aholisi qatori yangi O‘zbekiston qatqiyoti uchun parkentliklardan ham faollik, vatanparvarlik

va fidoyilik talab qilinayotganini angladim. Holbuki, quyosh Parkentdan chiqarkan, parkentliklar bu ishlarda uyush, ilg‘or va peshqadam bo‘lmog‘i lozim.

Davlatimiz rahbari Kumushkonga tutash tog‘lar kaftidagi, xususan, Oltin bel cho‘qqisidagi dam olish maskani va yangi loyihalar bilan tanishdi. Bu yerda “Parkent mountain resort” tog‘chang‘i kurort zonasi tashkil etiladi. Loyihada 1 ta ko‘p tarmoqli tashrif markazi, 7 ta dor yo‘li, 3 ta tog‘chang‘i yo‘li, 4 ta mehmonxona, 40 ta villa, 4 qavatli avtoturargoh, restoran, vertolyot maydonchasi, bolalar maydonchasi va boshqa turizm obyektlari barpo etilishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz namunaviy mehmonxonadagi sharoitlarni ko‘zdan kechirdi. Avstriya kompaniyasi tomonidan 1200 gektar maydonda tog‘chang‘i kurorti qurilishi rejalashtirilgan.

Loyiha uch bosqichda amalga oshiriladi. To‘liq quvvatda kuniga 15 ming sayyohni qabul qiladi. 600 ga yaqin servis majmuasi tashkil etiladi. Mavsumiy xizmat ko‘rsatish tufayli 10 mingga yaqin ish o‘rni ochiladi.

Istiqbolli loyihalar

Prezidentimiz “BATU Export” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining meva hamda sabzavotlarni quritish, qayta ishlash va qadoqlash loyihasi asosida ishga tushirilgan korxonasini ham ko‘zdan kechirdi.

Mazkur qo‘shma korxona “Alif” brendi ostida Niderlandiya va BAAning yirik firmalari bilan mahsulot eksporti masalasida shartnoma imzolagan. Kelgusida eksport hajmi yanada oshib, MDH va Yevropaning qator mamlakatlari ishbilarmonlari bilan 8 million dollarlik shartnomalar tuziladi. Tadbirkor Furqat Hikmatov mazkur MCHJ tarmog‘ida 200 ta ish o‘rni ochgan.

Davlatimiz rahbari So‘qoq sayyohlik markazi loyihasi bilan ham tanishdi. Loyiha yanada

samarali bo‘lishi uchun takliflarini aytdi. Ayni loyihaga ko‘ra, markaz 7 gektar joyda barpo etilishi ko‘zda tutilgan. Unda 17 turdagi obyekt bunyod etiladi. Xususan, 100 kishilik choyxona, 350 xonali 2 ta 11 qavatli mehmonxona, shale tipidagi uylar, sog‘lomlashtirish markazi, avtoturargohlar, katta-kichik mehmonxonalar, supalar, osma ko‘priki, kempinglar, kuzatuv maydoni va hokazolar So‘qoq sayyohlik markazi jozibasini ta‘minlaydi.

Tog‘larga chiqqanlar tog‘ bo‘lib qaytar

Ushbu tashrif faqat parkentliklar uchun emas, balki Toshkent viloyati, qolaversa, mamlakatimiz uchun ham har jihatdan tarixiy ahamiyatga ega. Katta-katta loyihalarga qo‘l urish arafasida turgan tadbirkorlardan oddiy aholigacha buning natijasini, mahsulini ko‘rmog‘da, sezmoqda. Shu bois, o‘zini anglagan yurtdoshlarimiz bu kunlar, imkoniyatlarning qadriini chuqur his etib, vatan rivoji, millat taraqqiyoti birlikda, yakdillikda ekaniga yana bir karra amin bo‘ldi. Ha, O‘zbekistonimizning, poxtyati azimining quyoshi Parkentdan chiqadi. Bu, albatta, vatani, xalqini sevgan, uning ertangi kuni uchun qayg‘urgan odamning qalbiday yuz ochadi!

Ushbu dil izhorlarimizga nuqta qo‘yishdan oldin butun Parkent ahliga, qadrlı tumandoshlarimga aytmoqchimaniki, qars hamisha ikki qo‘ldan chiqadi. Shuncha e‘tibor, e‘zoz va g‘amxo‘rlikka siz bizning javobimiz qanday bo‘ladi?

Avvalo, o‘zimiz uyg‘onib yashaylik! Mudroqlarni uyg‘otib yashaylik! Tiyrak inson oyoq ostini ham, uzoqni ham yorqin ko‘radi. Ana shu yorqinlik bizning ko‘zimizda ham, ko‘nglimizda ham bo‘lsin. Yaratgan inoyati ila bizga toza havo, toza suvni tog‘larimiz tutadi. O‘ftob orazi ham tog‘larimiz osha yuz ochadi.

ULUG‘VOR O‘ZGARISHLAR HAYRATI

Sharifa SALIMOVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoiri

Endigina qo‘limga qalam olib, ilk satrlarimni qog‘ozga tushirayotgan bolalik damlarimda bunday deb yozgan edim: “Men huv o‘sha olislardan mag‘rur tutgan boshini, keksalardek kumush sochli xushqad Chotqol qiziman”. Bu mening ona Parkentim haqidagi ilk tasavvurlarim edi.

Urushdan keyingi og‘ir yillar, o‘tgan asrning oltmishinchi yillardagi qiyinchiliklar... “Bizning ko‘ksimizga ham shamol tegarmikan”, deb hasratlarda o‘tib ketgan avlodlarimiz, bahorda guvillab, suron solib kelgan selning omonatgina yog‘och ko‘priki necha bor oqizib ketgani, yil bo‘yi mashaqqat bilan mehnat qilib, tokzorni bolasidek avaylab, hosilini kutgan soddadil, qo‘li qadoq xalqimizning bor uzumini Parkentdagi bittagina vino zavodiga turnaqator navbatga turib, arzimagan choychaqaga topshirib kelishi... Bular bari bolalik xotiralarimning mahzun varaqalari edi.

Prezidentimizning Parkent tumaniga tashrifi chog‘ida viloyat, tuman faollari bilan suhbat mobaynida ko‘z o‘ngimda kino tasmasidek

o‘tgan xotiralarim bugungi Parkentim jamoli oldida tumandek tarqab ketdi. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, Parkent aholisi ko‘ksiga o‘sha biz uzoq kutgan jannat nasimlaridek xush shabadalar esa boshladi. Parkentsoy bo‘yida viqor bilan qad rostlab turgan qator uy-joylar bir paytlar sel yuyib ketib xarobaga aylangan joylar o‘rnida o‘z egalariini kutib turibdi.

Olti gektar maydonga qurilishi mo‘ljallangan 125tako‘p qavatli, 5200xonadongamo‘ljallangan bu uylarning qurilgan qismi ko‘rgan ko‘zni quvontiradi. Mazkur uylar aholining talablari va didiga mos qilib qurilmoqda. Loyihada maktab, bolalar bog‘chalari, istirohat bog‘i, velosiped yo‘lakchalari, dam olish zonallari va boshqalar ham hisobga olingan.



Davlatimiz rahbari tumanda turizmni rivojlantirish maqsadida qiymati 1 milliard 800 million dollarlik 52 ta loyiha amalga oshirilishi haqida to‘xtalganida, ko‘z o‘ngimizda Parkentning kelgusidagi yanada jozibali istiqboli gavdalandi. Aslida, dunyo bir-birini adabiyoti, tili, sayyohlik jozibasini orqali taniydi. Bu yerning milliy qadriyatlarini, betakror tabiatining jonbaxsh nafasi, xalq qalbidagi kamalak rang dunyoni o‘zi bilan olib ketadi. Parkentning pahlavonlarday, yonboshlab harakatsiz yotgan o‘ngirlari, ularning

ko‘ksida yaratilayotgan betakror ma‘volar tarix sahifalariga bitiklar bo‘lib joylanadi. Bularning barida davlatimiz rahbarining qat‘iy siyosiy irodasi namoyon bo‘lib turibdi.

Tumanimizda juda qisqa muddatda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari yaqin orada u yerga bormagan insonni shoshirib qo‘yishi va hayratga solishi shubhasiz. Yangi ko‘priknig mustahkam va xalqimiz orzusidagidek qurilib, ishga tushirilgani, yo‘llar, yo‘lakchalar, shaharga kiraverishdagi binolarning muhtashamligi, shamolda yelpinib, o‘zidan xush iforatayotgan rayhonu jambilari, quyosh yuzli gullar.... Bu go‘zalliklarning bari sizni o‘ziga ohanrabodek tortib, maftun qiladi.

Ushbu loyihalarning amalga oshishi 3300 ta ish o‘rni, 1 million sayyohga xizmat ko‘rsatish imkoni yaratiladi, degani. “Oltin bel” cho‘qqisida Avstriya kompaniyasi tomonidan 1200 gektarda tog‘chang‘i kurorti qurilishi, 3, 4 va 5 yulduzli mehmonxonalar barpo etilishi, chang‘i uchish va osma dor yo‘li, shalelar, piknik maydoni, restoranlar, sog‘lomlashtirish xizmatlari tashkil etilishi, natijada kuniga 15 ming sayyohni qabul qilish imkoniga ega bo‘lishi, mavsumiy xizmatlar bilan birga 10 mingga yaqin ish o‘rni yaratilishi, umuman, Parkent tumanining yirik



turizm manzillaridan biriga aylanishi xalqimiz qalbidagi amalda oshmay yotgan asriy orzular edi.

— Quyosh Parkentdan chiqadi, — dedi Prezidentimiz suhbat mobaynida. Bu so‘zning mazmun-mohiyati shunchalar teranki, quyosh nurlari tushgan joy obod bo‘ladi, jannatmonand joyga aylanadi. Bu nur mamlakatimiz bo‘ylab “Inson qadri uchun” tamoyili asosida kechayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar mash‘ali, Uchinchi Renessans yo‘lini yorituvchi yorug‘lik, Prezidentimiz qalbidagi o‘z yurtini

dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatorida ko‘rish va undan o‘zish uyg‘dusi, inson tafakkurining mudroq qadamlarini uyg‘otib yuboradigan yorqin shu‘lalardir.

Baytqo‘rg‘on — Parkent yo‘nalishi bo‘yicha bir kunda 275 ming yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadigan elektr poyezdi qatnovini yo‘lga qo‘yish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hammaimiz uzoq yillar orzulagan quvonchlardir...

Baxt va quvonchlarimizning umri abadiy bo‘lsin.



MALAKALI MUTAKASSISLAR TAYYORLASH BO‘YICHA QASHQADARYO Tajribasi

Bugun O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tdi. Bu bosqichning poydevori ilm, ma’rifat va innovatsiyadir. Yurtimizdagi islohotlarning o‘zagida inson manfaatlarini yuksaltirish, xalqimizning farovon hayotini ta’minlash va har bir hududning boy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ezgu maqsad mujassam.



Aziz MELIBOYEV,
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi
mas'ul xodimi

Qashqadaryo viloyatida kechayotgan keng qamrovli o‘zgarishlar esa mazkur siyosatning amaldagi yorqin namunasidir. Prezidentimiz raisligida Qashqadaryo viloyatini kompleks rivojlantirishning ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda viloyatni har tomonlama yuksaltirish, aholini barqaror ish o‘rinlari bilan ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish hamda zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish bo‘yicha aniq va ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Qashqadaryo viloyati misolida ilmiy tahlil va amaliy yechimlar uyg‘unligida yaratilgan chora-tadbirlar dasturi hududiy rivojlanishga yangi sur’at baxsh etishi kutilmoqda.

Maqsad aniq — yuqori natijalarga olib keluvchi, samarali va barqaror rivojlanishni ta’minlash. Shu yo‘lda “oliygoh — korxona — hudud” tamoyili negizida universitetlar, mahalliy hokimlik va ishbiarmon doiralar o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Vazirligimiz tomonidan Qashqadaryo viloyati misolida ishlab chiqilgan, hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib, ilmiy yondashuv asosida tayyorlangan amaliy chora-tadbirlar dasturida har bir hudud uchun alohida yondashuv, yuqori natijalarga erishishga qaratilgan maqsadli strategiya belgilandi.

“Qashqadaryo viloyati texnikumlarida dual ta’lim shaklida kasb o‘rganayotgan o‘quvchilar soni 3 mingdan 10 ming nafargacha oshishi kutilmoqda. Bu esa o‘tgan yilgi ko‘rsatkichdan 6 barobar o‘shishni anglatadi. Ya’ni Qashqadaryo yoshlari zamonaviy kasblar bilan amaliy asosda tanishish, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topish va kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassis sifatida shakllanish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.



“Kasbiy ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmasdan turib, raqobatbardosh mutaxassis tayyorlab bo‘lmaydi. Shu bois, yurtimizda kasbiy ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish, ularni ilg‘or uskuna va raqamli texnologiyalar bilan ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

nurining yuqori intensivligini hisobga olgan holda loyiha doirasida har bir xonadonda yashovchi 4 fuqaro uchun kafolatli ravishda har biriga kamida 50 litrdan (harorat 50-60 darajada bo‘lgan) issiq suv taqdim etish imkoniyati yaratildi.

Bugungi zamon ta’lim tizimi oldiga raqobatbardosh mutaxassislar — jamiyatdagi dolzarb muammolarga ilmiy yechimlar taklif qila oladigan, ekologik ong yuqori, barqaror rivojlanish tamoyillarini anglagan yoshlarni tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda.

Bu borada Qarshi davlat texnika universitetida ilg‘or muhandislik maktabi hamda Muhandislik ilmiy ishlab chiqarish markazini tashkil etish ishlari boshlandi. Ilg‘or muhandislik maktabi istiqbolni bunyod etadigan bilim maskani bo‘lib, u yerda nazariy bilimlar mustahkamlanadi, ishlab chiqarish bilan bog‘liq, raqobatbardosh yechimlar yaratiladi. Ushbu maktabda talabalar ilmiy g‘oyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘ladi, loyihalarini hayotga tatbiq qiladi.



Muhandislik ilmiy ishlab chiqarish markazida esa ilmiy g‘oyalarni chinakam buyumga, yangi ixtiroga, tijoratbop mahsulotga aylantadi. Muhandislar, yosh ixtirochi va tadqiqotchilar uchun qulay muhit, zamonaviy uskunalar, raqamli texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriyalar yaratiladi.

2025-yil yakuniga qadar viloyatdagi oliy ta’lim, ilmiy va kasbiy tashkilotlarda faoliyat yuritib kelayotgan 300 nafar professor-o‘qituvchi va ilmiy xodimni yetakchi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari hamda nufuzli universitetlarga yuborish rejalashtirilgan. O‘qituvchi va olimlarimiz AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Xitoy kabi ilg‘or ilmiy maktablarga ega

davlatlarda malaka oshirish, ilmiy izlanishlar qilish va keng qamrovli hamkorlik loyihalarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu orqali yurtimizdagi oliy ta’lim va ilmiy faoliyatning xalqaro miqyosdagi nufuzi yanada ortadi, yoshlarga zamonaviy bilim berish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, xorijdan qaytgan mutaxassislar o‘z sohasida yetakchi tajribalarni joriy etib, ilmiy muhitni faollashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Viloyatda kasbiy ta’lim tizimini mehnat bozori talablari bilan chambarchas bog‘lash maqsadida dual ta’limni keng joriy etish bo‘yicha qat’iy qadamlar tashlanmoqda. Hamkorlikning yangi modeli o‘quvchi, ta’lim muassasasi va ish beruvchi o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, sohalarini haqiqiy kasb egalari bilan ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda birgina Qashqadaryo viloyati texnikumlarida dual ta’lim shaklida kasb o‘rganayotgan o‘quvchilar soni 3 mingdan 10 ming nafargacha oshishi kutilmoqda. Bu esa o‘tgan yilgi ko‘rsatkichdan 6 barobar o‘shishni anglatadi. Ya’ni Qashqadaryo yoshlari zamonaviy kasblar bilan amaliy asosda tanishish, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topish va kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassis sifatida shakllanish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Yangi o‘quv yili viloyatdagi kasbiy ta’lim sohasi uchun tamomila yangi bosqichni boshlab beradi. Qarshi va Shahrisabz shaharlari, G‘uzor, Koson va Chiroqchi tumanlaridagi 6 ta texnikumda xalqaro standartlarga mos ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash boshlanadi. Xususan, “Metallar texnologiyasi” va “Bino va inshootlar qurilishi” yo‘nalishlari bo‘yicha Germaniyaning “Avestos” kompaniyasi bilan

hamkorlikda nemis ta’lim modeli joriy etilib, 192 nafar iqtidorli yosh o‘qishga qabul qilinadi.

Xalqaro ta’lim dasturlari geografiyasi yanada kengayayotgani ham e’tiborga molik. G‘uzordagi politexnikumda Buyuk Britaniyaning nufuzli “Pirson” (Pearson) kompaniyasi bilan yo‘lga qo‘yilayotgan hamkorlik, ayniqsa, diqqatga sazovor. “Pirson” — butun dunyoda e’tirof etilgan ta’lim brendi, u zamonaviy, interfaol va amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari orqali talabalarni faqat nazariy bilimlari emas, balki hayotga tayyorlaydigan, mustaqil fikrlaydigan mutaxassis qilib yetishtirishga qaratilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilim va malakasi xalqaro sertifikatlar asosida baholanadi va xalqaro darajada tan olinadi. Bu esa yoshlarga ham milliy, ham xalqaro mehnat bozorida o‘z o‘rnini topish imkonini beradi.

Kasbi tumanidagi politexnikumda esa Belarusning tajribali mutaxassislari ishtirokida texnik yo‘nalishlardagi dasturlar joriy etiladi. Bu yerda amaliy ta’lim, texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kasbiy ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmasdan turib, raqobatbardosh mutaxassis tayyorlab bo‘lmaydi. Shu bois, yurtimizda kasbiy ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish, ularni ilg‘or uskuna va raqamli texnologiyalar bilan ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Koreya Respublikasi banki bilan amalga oshirilayotgan “Kasbiy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash” loyihasi bu yo‘nalishdagi muhim xalqaro hamkorlik namunasidir.

Loyiha doirasida respublikamiz bo‘yicha 32 ta texnikum zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanadi. Umumiy qiymati 3,5 million dollarlik investitsiya hisobiga imkoniyatlar yanada kengayadi, ta’lim jarayoni rivoji yangi bosqichga chiqadi.

2025/2026-o‘quv yili Qashqadaryo viloyatida ta’lim va ilmiy sohada yangi marralar yili sifatida tarixga kiradi. Chunki viloyatda oliy va kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish, fan va innovatsiyalar yo‘nalishida samarali tashabbuslarni hayotga tatbiq etish borasida muhim islohotlar boshlandi.

Yil davomida viloyatdagi 11 ta texnikumda keng ko‘lamli kapital ta’mirlash va rekonstruksiya ishlari rejalashtirilgan. Natijada ta’lim muassasalari zamonaviy talablarga javob beradigan, har tomonlama qulay va samarali o‘quv muhitiga ega bo‘ladi. Bu esa yoshlarimizning zamonaviy kasb-hunar va bilim olishiga yanada keng yo‘l ochadi.

Shu bilan birga, joriy yilda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga daxldor dolzarb muammolarga yechim topishga qaratilgan, amaliyotga asoslangan ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar tanlovlari o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Joriy yil dekabr oyiga qadar Qarshi davlat universiteti huzurida Xalqaro laboratoriyalar markazini tashkil etish rejai alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu markaz ilmiy tadqiqot faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish va joriy etishda muhim platformaga aylanishi kutilmoqda. Markazning xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilishi esa uning nufuzi va ishonch darajasini yanada mustahkamlaydi.

Davlatimiz rahbarining Qashqadaryo viloyatiga tashrifi mazkur sa’y-harakatlarga yangi sur’at va ruh bag‘ishladi. Prezidentimiz viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va ta’lim infratuzilmasi holatini o‘rganib, kelgusidagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Tashrif davomida berilgan topshiriq va tavsiyalar ta’lim sohasini isloq qilishda muhim dasturlamal bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rinda aytish mumkinki, viloyatda boshlangan yangi amaliy tajriba ta’lim, fan va innovatsiya sohasini zamon talablari asosida rivojlantirishda muhim poydevor hisoblanadi. Bu tajriba, shubhasiz, yurtimizning barcha hududlarida keng qo‘llanilishi va bilimli, kreativ, raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

TA’LIMDA SIFAT VA SAMARADORLIK UYG‘UNLIGI



Botir USMONOV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
rektori, texnika fanlari doktori,
professor



Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy drayveri sifatida ta’lim samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim muassasalarining takomillashuvi nafaqat bugunimiz, balki ertangi kunimizning ham poydevoridir. To‘g‘ri ta’lim sifati o‘lchaydigan yagona va universal vosita mavjud emas, biroq muvaffaqiyatli oliy ta’lim maskani o‘ziga xos mezonlar bilan ajralib turadi.

Bu, avvalo, institutning aniq belgilangan maqsadlari va rivojlanish rejalari har bir xodim uchun shaffof va tushunarli bo‘lishidir. Ikkinchidan, o‘quv dargohidagi yaxlitlik bu — barcha bo‘limlar o‘rtasidagi samarali hamkorlik, shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi

“

Institutda bosqichma-bosqich yagona axborot makoni yaratib borilmoqda. Bu talabaga o‘z vaqtida javob qaytarishga va oliy ta’lim muassasasi belgilangan maqsadlari bilan nomuvofiq bo‘lgan nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradi.



mumkin. Bunday tizim har bir talabaga individual yondashuvni qo‘llash, o‘zlashtirishni nazorat qilish va yuzaga keladigan muammolarni o‘z vaqtida hal etishga yordam beradi.

Oliy ta’lim muassasasi faoliyatining muhim ko‘rsatkichlaridan ilmiy professor-o‘qituvchilar tarkibining malakasi, ilmiy darajali o‘qituvchilar soni va ularning ilmiy nashrlari iqtibos indeksi yuqoriligi hisoblanadi. Xodimlar salohiyatini

rivojlantirish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etish uchun institut rahbariyatiga qator imkoniyatlar zarur. Bularga mavjud bo‘limlar bo‘yicha har qanday dolzarb hisobotni (masalan, yosh mutaxassislar soni, Oliy attestatsiya komissiyasining majburiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan nashrlar) tekzorlik bilan olish kiradi. Shuningdek, xodimlarning istalgan davrdagi ilmiy faoliyatiga xolis baho berish,

ishi to‘g‘risida statistik ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘lish lozim.

Zamonaviy internet texnologiyalari ushbu jarayonlarni nazorat qilish va o‘qituvchilar tarkibini rivojlantirish rejalarni o‘z vaqtida tuzatish imkonini beradi. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy ishlarni hisobga olish rektor oldida turgan muhim vazifa bo‘lib, jarayonni avtomatlashtirish shaffoflikni oshirish va institutdagi o‘quv jarayoni sifatini yanada yaxshilash uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Har bir talabani tayyorlash, bilim bazasini keyinchalik mehnat faoliyatida qo‘llash uchun shakllantirish abitturiy institutga qabul qilingan paytdan boshlanadi. Rahbariyatning asosiy vazifasi har qanday kompetensiyalarni qulay va samarali o‘rganishi uchun talabaga zarur turli komponentlarning to‘liq to‘plamini taqdim etishdir. Muvaffaqiyatli ishlashda o‘qituvchilar o‘rganilayotgan barcha fanlar bo‘yicha talabalar uchun yagona axborot maydonini yaratishi kerak. Jarayonni shunday tashkil qilish kerakki, u oddiy tuzilgan va o‘rganilayotgan fanning har bir bo‘limi uchun ta’lim ma’lumotlariga oson kirishni ta’minlashi zarur. Demak, Toshkent kimyo-texnologiya instituti rahbariyati oldida turgan asosiy vazifa o‘quv-uslubiy vazifalarni avtomatlashtirish bo‘ladi. Ma’muriy va ilmiy vazifalar ta’lim muassasasining har bir bo‘limi ishini avtomatlashtirishning navbatdagi bosqichidir. Institutda bosqichma-bosqich yagona axborot makoni yaratib borilmoqda. Bu talabaga o‘z vaqtida javob qaytarishga va oliy ta’lim muassasasi belgilangan maqsadlari bilan nomuvofiq bo‘lgan nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradi. Natijada institut samarali tashkil etilgan boshqaruv tizimiga ega bo‘ladi va bu, o‘z navbatida, milliy ta’lim tizimimiz rivojiga munosib hissa qo‘shadi.



27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni



JURNALISTNING ROST SO‘ZI

ADOLAT VA HAQIQAT JARCHISI BO‘LISH QUDRATI

O‘zbek kino ijodkorlari suratga olgan bir film bor. Nomi: “Tilim qursin”. Yumor orqali inson tiynatining nozik jihatlari ochib berilgan. Syujetga ko‘ra, yerto‘lada uzoq muddat saqlangan quruq choyni ichgan odam muayyan muddat beixtiyor faqat rost gapiradi. Tili boshqayu dili boshqa ekanini namoyon qilaveradi.

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Jurnalist — o‘sha sehrlı choyni ichsa ham, ichmasa ham bir xil gapirishi kerak bo‘lgan kasb egasi. Unda mazkur ko‘nikma shakllangan bo‘lmog‘i lozim. Jurnalistning yolg‘on gapirish, soxta ma‘lumot tarqatish, jamoatchilikni chalg‘itishga haqqi yo‘q. XXI asr — axborot asri! Jurnalistikaning roli nihoyatda katta. Jamiyat hayotidagi muhim voqea-hodisalar, odamlar manfaatiga daxldor masalalarni yoritishda jurnalistlarning o‘mi va mas‘uliyati beqiyos. Ayniqsa, “jurnalistning rost so‘zi” degan tushuncha nafaqat kasbiy etika asosi, balki jamiyat ishonchi va adolat mezonı hamdir.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Jabbor Razzoqov umrini matbuotga bag‘ishlagan. Suhbatlarning birida u bunday dedi: “Davlatimiz rahbari jurnalistlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlayapti. Ular uchun sharoit va imkoniyatlar yaratib berilyapti. Ana shunday bir paytda jurnalistlar ham bunday e‘tiborga loyiq bo‘lishi kerak. Jurnalist xalq fidoyisi, adolat va haqiqat jarchisi, ma‘naviyat targ‘ibotchisi, shu bilan birga, vatan tarixini yaratuvchi ekanini unutmasligi kerak. Agar soha vakillari sust bo‘lsa, dunyodagi voqealardan bexabar qoladi. Tarix sahifalariga bugungi ulkan o‘zgarishlar, ularning asl bunyodkorlari kiritilishi

deb o‘ylayman. Shuningdek, bugungi kunda yolg‘on va asossiz ma‘lumotlarni tarqatish orqali odamlarni aldash, to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itish holatlari ko‘payib borayotgani aholining media savodxonligini oshirishni oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa qilib qo‘lymoqda.

Axborot maydonida yuzaga kelayotgan bahsli tortishuv va muammolar faqat va faqat qonun doirasida, huquqiy me‘yorlar negizida hal etilishi shart. Siz, hurmatli media tarmog‘lari vakillari ana shunday masalalarni hal etishda faol ishtirok etasiz deb ishonaman”.



Jurnalist xalq fidoyisi, adolat va haqiqat jarchisi, ma‘naviyat targ‘ibotchisi, shu bilan birga, vatan tarixini yaratuvchi ekanini unutmasligi kerak. Agar soha vakillari sust bo‘lsa, dunyodagi voqealardan bexabar qoladi. Tarix sahifalariga bugungi ulkan o‘zgarishlar, ularning asl bunyodkorlari kiritilishi kerak.

kerak. Ularsiz tarix kemtik bo‘lib qoladi. Shu ma‘noda, matbuotning, ayniqsa, bosma nashrlarning kelajakka xizmati alohida”.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan yili matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo‘llagan tabrigidagi mana bu satrlarga e‘tibor bering:

“Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat o‘t‘rtinchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda. Bu esa mazkur yo‘nalishda aynan sizlardek jasur va dovyurak, Vatanni chin dildan sevadigan, o‘z kasbiga sodiq va fidoyi insonlar tobora ko‘proq bo‘lishini taqozo etmoqda.

Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, ko‘p qirrali professional bilim va malakaga, yuksak ma‘naviy-intellektual fazilatlariga ega bo‘lgan zamonaviy jurnalist kadrlar tayyorlash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, axborot maydonini sifati va raqobatdosh milliy kontent bilan to‘ldirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib borayotgani barchamiz uchun ayon haqiqatdir.

Shu bois, dunyoda yur berayotgan voqea-hodisalarni milliy manfaatlarimizni hisobga olgan holda, tezkor va chuqur tahlillar asosida yoritib borish o‘ta muhim

Fidoyi jurnalist bo‘lish uchun ishtiyorning o‘zi yetarli emas. Ishtiyoq kerak, lekin iste‘dod tug‘ma bo‘lsa, yetuk bilim, tajriba va mahorat bilan uyg‘unlashsa, ko‘zlangan maqsadga oson erishiladi.

Hozir qalam haqi beradigan tahririyatlar sanoqli qolgan. Ijod ahli esa, qanchaligidan qat‘i nazar, qalam haqi maoshdan ham shirin bo‘ladi degan gapning shaydosi. Shu yil avvalida ba‘zi fidoyi hamkasblarimiz gazetalarda chiqqan maqolalarni uchun berilgan qalam haqiga kitob sotib olib tarqatish tashabbusini ilgari surdi. Sa‘y-harakatlar boshlanganini eshitgach, kasbimdan, kasbdoshlarimdan faxrlandim. Buni faqat oljanoblik deb baholash mumkin. Jurnalistlar boy bo‘lmaydi deyishadi. Badavlati yo‘q soha vakillarining bunday qo‘li ochiqligi esa har qanday tahsingsa loyiq.

Soha darg‘alari ko‘p takrorlaydigan bir gap bor: “Jurnalistikaning noni qattiq!”. Bu iboraning asl mohiyatini kundalik izlanish, o‘rganish, tahlil qilishdan tashqari har bir so‘z, har bir jumla ustida ishlash azobini boshdan o‘tkazgan odam yaxshi anglaydi. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda ustoz jurnalistlardan birining hazilnamo, ammo achchiq haqiqat aks etgan fikriga ko‘zim

tushdi. U taxminan bunday yozgandi: “Bir muammoli mavzuni ko‘tarib chiqdim. 20 ta layk bosildi. Bir qiynalgan hamkasbimizga yordam kerak deb post qo‘ydim. 32 kishi munosabat bildirdi. Hovlimdagi o‘zim parvarishlayotgan gullarni suratga olib joylashtirgandim, 250 dan ko‘p olqish oldim. O‘ylab turibman: jurnalistikani yig‘ishtirib, gulchilik bilan shug‘ullanassammikan...”.

Hazil ortidagi haqiqat shundan iboratki, matbuot vakillari ko‘tara-yotgan dolzarb mavzu va muammolar jamoatchilik, ya‘ni yurtimizning har bir a‘zosisga taalluqli bo‘lishi kerak. Zotan, ommaviy axborot vositalari vakillarining eng asosiy vazifasi haqiqatni xalqqa yetkazish, voqealarni xolisona yoritishdir. Buning uchun jurnalist har qanday bosim yoki shaxsiy manfaatlardan xoli bo‘lishi, faqat haqiqat uchun xizmat qilishi kerak.

Rost bilan yolg‘on so‘z o‘rtasidagi farq juda katta: rost so‘z odamlarni uyg‘otadi, yaxshilikka undaydi, adolatlarni tiklaydi. Yolg‘on esa aksincha — adashtiradi, fitna chiqaradi, ishonchni yo‘qotadi. Ammo jahon amaliyotida haqiqatni yoritish doim ham oson

bo‘lmagan. Ba‘zan jurnalistlar xavf-xatarga duch keladi, turli tazyiqlarga uchraydi. Shunday sharoitda ham jurnalistning matonati, vatanparvarligi va kasbiy fidoyiligi namoyon bo‘ladi. U rost so‘z uchun kurashadi, xalq manfaatini himoya qiladi.

— Jurnalist rostgo‘y bo‘lsa, jamiyat sog‘lom bo‘ladi, — deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Ahror Ahmedov. — Chunki axborot — jamiyat ko‘zgusi. Agar ko‘zgu sof bo‘lsa, odamlar haqiqatni ko‘radi, chalkashmay, to‘g‘ri yo‘l tanlay oladi. Shu bois, har bir jurnalist burchishi, sidqidildan yondashishi, rost so‘zni hayotiy qoidasiga aylantirishi lozim.

Qisqasi, jurnalistning rost so‘zi nafaqat kasbiy mas‘uliyat, balki jamiyat uchun ishonch va demokratik nazoratga xizmat qiluvchi muhim jihatdir.

Nodir MAHMUDOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Millat fidoyilari

“Bor, bolam, boraqol, VATANNI HIMOYA QIL...”

Odatdagidek ishga erta kelgan Toshbibi opa birdan tozalikka kirishdi. Qo‘liga supurgi olib, xonalarni birmabir supurishga tushdi. Shifokorlar kelishidan oldin hamma joyni sarishta qilishi kerak. Axir bu yerga odamlar davo istab keladi. Qishloq vrachlik punkti degan nomi bor. Tozalik birinchi o‘rinda bo‘lishi lozim. O‘zicha xayol bilan katta shkafni artarkan, uning ortida yotgan narsaga ko‘zi tushdi. Eski, chang bosgan kitob ekan. Qo‘liga olib, kitob yuzini artdi. Sarg‘ayib ketgan. Muqovasida “O‘tkan kunlar” deb yozib qo‘yilgandi. Badiiy adabiyotga qiziqishi bois, kitobni varaqlashga tushdi. Dimog‘iga yoqimli qog‘oz hidi urildi...

Ishini tugatib, uyga kelishi bilan mutolaaga kirishdi. Shu o‘tirishda “O‘tkan kunlar”ga sayohat qila boshladi. Qahramonlar bilan birga sarguzashtlarni boshdan kechirdi. So‘nggi sahifani o‘qib tugatarkan, soat millari ertalabki to‘rtidan o‘tib, asta-sekin tong yorishayotgandi. U ancha vaqtga qadar kitob taassurotini xayolidan chiqarolmay yurdi. Ayniqsa, Otabekning jasorati, oriyyati ekani qalbiga o‘mashib qoldi. Bu orada ikkinchi o‘g‘li dunyoga keldi. Oilasidagilar chaqaloqqa ism qidirishga tushganida Toshbibi hech ikkilanmay, uni Otabek deb atashni taklif qildi. Bu boshqalarga ham ma‘qul bo‘ldi.

Yillar o‘tib, Avaz aka bilan Toshbibi opa Otabekdan keyin yana bir o‘g‘il, bir qiz ko‘rdi. Farzandlarini halol yedirib, yaxshi tarbiyalab, voyaga yetkazarkan, ota-onasi Otabek aka-ukalariga qaraganda ancha tirishqoq ekanini anglab borardi. Ayniqsa, maktabdagi sport musobaqalarida farzandining g‘oliblar qatoridan joy olganini eshitish ular uchun juda faxrli edi.

Otabek maktabni tugatgach, harbiylikka o‘qishga kirish harakatiga tushdi. Ammo imtihonlardan o‘ta olmadi. Shundan so‘ng muddatli harbiy xizmatni o‘tash uchun armiya safiga jo‘nadi. Bir yarim yil yigitlik burchini ado etib, ota-onasining bag‘riga qaytgach, shartnoma asosida harbiy xizmatni davom ettirishga oq yo‘l so‘radi. Ularning roziligi bilan maxsus harbiy xizmat bo‘limida ishlay boshladi. Toshbibi opa har safar o‘g‘lini chiroyli harbiy libosda ko‘rganida g‘ururlanib, farzandi ismiga munosib yigit bo‘lganidan mamnunlik tuyardi.

Oradan bir oz vaqt o‘tib, uni uylandirish harakatiga tushib qoldi. Avvalroq o‘g‘li ta‘tilga kelganida qishloqda ko‘z ostiga olib qo‘ygan qiz haqida so‘rab qolgandi. Bugun shu hovliga sovcilikka borishga erta tongdan otlanarkan, negadir yuragi bezovtalana boshladi. Barchasi quvonchdan, deya ko‘chaga chog‘lanarkan, baribir ovog‘i bo‘ysunmay o‘tirib qoldi. Ayni shu kunlarda esa Otabek Toshkent viloyatida mamlakat chegarasini buzib o‘tishga uringan terrorchilarga qarshi ayovsiz kurashayotgandi. Oldisdagi bu voqealarni ona qalbi bilan sezmasligi mumkin emasdi. Kun davomida o‘tirgancha o‘g‘lini duo qildi. Turmush o‘rtog‘i ishdan kelgach, undan tuman markaziga borib, biror joydan telefon orqali o‘g‘lining holini so‘rab kelishni iltimos qildi. Avaz aka nima bahona qilsa ham ko‘nmadi. Noiloj ancha vaqtigacha ketib, o‘g‘li salomat ekani, bexavotir xizmat vazifasini bajarib yurganini aytib, ayolini tinchlantirdi. Lekin o‘zining ham negadir



ko‘ngli notinch edi. Shukrki, askarlarning mardonavor harakati bilan terrorchilar yo‘q qilinibdi. Buni ayoliga aytishning imkoni yo‘q.

Yaxshi kunga nima yetsin?!

Harbiy yigitdan qizini so‘rab kelishganida bo‘lg‘usi qudalar ham yo‘q demadi. Axir shunday mard askarni kuyov qilish faxr-ku. Rozilik olindi. To‘y kunini belgilash qoldi, xolos. Faqat Otabekning ta‘tilga chiqishini kutish lozim. O‘sha kun keldi. Ota-onasi shoshgancha to‘yni boshlab yubordi. Butun mahalla yaxshi kunga chaqirildi. Uzukka ko‘z qo‘ygandek yarasgan ikki yoshni tabriklamagan, ularning baxtiga havas qilmagan kishi qolmadi. Go‘yo Toshbibi aya kitobda o‘qigan Otabek va Kumush obrazlari jonlangandi. Har tong ularning baxtiga ko‘z tegmasin deya duo qilishdan charchamasdi. “O‘g‘limni dam olish kunlari tugab, ishi boshlanadigan bo‘lsa, kelinimni ham birga jo‘natib yuboraman”, deya niyat qilib qo‘ygandi.

Ta‘til kunlari yakunlanishiga ikki-uch kun qolganida Otabekning ish joyidan chaqiruv qog‘ozi kelib qoldi. Shoshgancha yo‘lga chiqqan yigit yorining ko‘zidagi yoshni ko‘rmaslik uchun ortiga burilmadi. Kelinchak sabrغا suyangancha jim qolaverdi. Xizmat tartibi qat‘iy. Borish kerak. “Tez qaytaman”, dedi-ku. Bu vaqt deganlari kutgan payti tezroq o‘taversa-chi. O‘tgan har daqiqa yilga, kun asrga tenglashib boraverdi. Na xat, na xabar bor. Kunlar tunlarga ulanardi. Bir tomonda ota-ona, ikkinchi tomonda sevikli yorning nigohi yo‘lda. Eshik tiq etsa, ko‘zlar ko‘chaga tikiladi.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani. Maxsus topshiriq olib, o‘z vazifasiga kirisharkan, serjant Otabek Muhammadiyev yurt chegarasini yovuz niyatli kishilar buzib o‘tganidan allaqachon xabardor edi. Tish-timog‘igacha qurollangan o‘z vazifasi bor. Shu kuni terrorchilar avj qildi. Ularga qarshi kurashayotganlarga yordamchi kuch zarur edi. Qo‘shimcha kuch sifatida serjant Muhammadiyev guruhi yuboriladigan bo‘ldi. Maxsus vertolyot orqali jo‘nagan harbiy guruh jang maydonida havodan turib, bir qancha dushmanmi yer tishlatdi. Tog‘li hudud bo‘lgani bois, ayrimlari toshlar orasiga yashirindi. Shunday bo‘lsa-da, birotasini qoldirmaslikka harakat qilindi. Dastlabki vazifa uddalandi. Navbat — keyingi bosqichga. Vertolyot harakatni davom ettirarkan, kutilmagan zarbadan qalqib ketdi. Havoda gir aylana boshlagan vertolyot ichi qora tutungga to‘lgandi. Afsuski, dushmanning boshqaru ta‘sirida vertolyotning yarmi sinib tushdi. Zorbar yo‘qolgach, to‘g‘ri pastlikka qulib...

Shu kuni bezovtalikdan o‘zini qo‘yishga joy topolmay o‘tirgan Avaz aka bexosdan bironing chaqirganini eshitib, xayolini jamlab ko‘chaga chiqdi. Eshik oldida ko‘p ham yo‘qlayvermaydigan mahalla raisini ko‘rib, hayratini yashirolmadi. Salom-alikdan so‘ng rais maqsadga o‘tdi.

— Avaz aka, Sizni Kitob tumani mudofaa bo‘limidan so‘rashgan ekan. Shunga borarkansiz, aytib yuborishibdi, — deya rais ham gapni qisqa qilgancha jo‘nab qoldi. O‘g‘limdan biror xabar bordir degancha tuman markaziga yo‘l olgan ota bo‘lim eshigi oldiga qanday yetib borganini sezmay qoldi. Negadir ichkariga

kirishga holi yetmay, shu yerda to‘xtadi. Oradan chaması bir soat o‘tdi, biror noxush xabar eshitishdan cho‘chib, jimgina ortiga qaytib ketdi. Otasining bir ahvolda uyga kirib kelganini ko‘rgan to‘ng‘ich o‘g‘il Ozod aniqlik kiritish uchun o‘zi yo‘lga chiqdi.

— Rosti o‘sha kuni bunday xabar eshitaman deb sira o‘ylamagandim, — deydi Ozod Muhammadiyev. — Mudofaa bo‘limiga borsam, kutib o‘tirishgan ekan. Tezda ichkariga olib kirishdi. U paytlari hozirgidek telefon yo‘q edi. Kirsam, telefonogrammani ko‘rsatishdi. Unda “Otabek Muhammadiyev Vatan sarhadlarini qo‘riqlashda qahramonlarcha halok bo‘ldi”, deb yozib qo‘yilgandi. Ming afsuski, o‘qiganlarim haqiqat edi. Shundan so‘ng ota-onam necha vaqtgacha o‘ziga kelolmadi. Anchadan beri bir maqsadimni amalga oshirishga botinolmay yurgandim. Bir kuni harbiy bo‘lish istagim borligini, ukamning ishini davom ettirmoqchi ekanimni aytidim. Rosti, ancha xavotirim bor edi. Shunda onam kutilmagan gapni aytib, meni hayratda qoldirdi. “Bolam, ukang vatanning bir qarich yerini dushmanga bermaslik uchun senu mening, barchamizning tinchimini o‘ylab jon berdi. Uning o‘rni bo‘shab qolmasin. Axir yurtga qalqon bo‘lgan har bir yigitning o‘rnini to‘ldiradigan mardlar bo‘lishi kerak. Mening sheryurak Otabegim o‘lmagan. Bu davlatning otabeklari abadiy ekanini dushmanlar ko‘rib qo‘ysin. “Men Otabekman”, deya chegarada tik turgin. Farzandimga o‘q uzgan o‘sha yaramasni topib, jazosini ber. Boraqol. Boshing toshdan bo‘lsin, bolam”. Bu so‘zlar hamon qulog‘im ostida jaranglab turadi. Ota-onamning duosi bilan egnimga harbiy libos kiydim. Shukrki, 12 yil shartnoma asosida ishlab, nafaqaga chiqdim. Hozir bir ukam va o‘g‘lim bu kasbni davom ettirmoqda. Ota-onam har gapida ukamning qahramonligini aytishdan charchamasdi. Nabiralarga g‘urur bilan uni afsonaviy botir qilib tasvirlab berardi. Bu ularga eng assiy yupanch edi.

Otabek Muhammadiyevning qahramonligi, uning ortidan hech ikkilanmay harbiylik libosini kiygan aka-ukalarining shijoati, ota-onasining jasoratiga qoyil qolmay iloj yo‘q.

Yaqinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Toshkent shahrida “Millat fidoyilari” xotira yodgorligi o‘rnatildi. Bu “Millat ko‘ngli yarim oilalar qalbiga yupanch olib kirdi. Akasining aytishicha, ota-onasi vafot etgach, Otabekni deyarli hech kim xotirlamay qo‘yg’an. Onasi yugurib-yelib o‘tmagan ayrim yodgorliklar ham e‘tibordan chetda qolgan. Jumladan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan Kitob tumani Ochamayli qishlog‘idagi 11-maktab hovlisida Otabek Muhammadiyev byusti o‘rnatilgan. Achinarlisi, byust nomigagina yasalgani ko‘rinib turibdi. Haykal ostiga esa faqat ism-familiyasi, tug‘ilgan va vafot etgan sanasi qayd etilgan, xolos. Kimligi, qanday qahramonliklar ko‘rsatgani haqida bir qator so‘z yozilmagan. Ta‘lim maskani binosi ichkarisidagi zalda esa O.Muhammadiyevning harbiy libosdagi ayrim suratlari ilib qo‘yilgan. Yetarlicha ma‘lumot olishga sharoit qilinmagan. Qishloqdagi ba‘zi ko‘chalar uch-to‘rt yil uning nomi bilan atalgan. Keyinchalik ild tashlangan. 2023-yilda yana qayta qo‘yilgan. Ammo hali-hanuz e‘tiborsizlik oqibatida ayrim darvozalarga ikkitadan nom yozilgan yoriqlar ilib qo‘yilgan.

Prezidentimiz joriy yil 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G‘alaba bog‘ida so‘zlagan nutqida “Bu sheryurak o‘g‘lonlarimizning ham kelajak orzulari bor edi, ularni oldinda yaxshi va yorug‘ kunlar, ota-onasi, oilasi, shirindan-shirin farzandlari kutayotgan edi. Lekin mamlakatimiz istiqloli, xalqimiz tinchligiga nisbatan real xavf tug‘ilgan paytda, ular bir daqiqa ham o‘ylab o‘tirmasdan, jonajon Vatanimiz himoyasi yo‘lida o‘tirgan qalqon qilishdi. Bu fidoyi harbiylar shu tariqa bugungi Yangi O‘zbekiston uchun mustahkam zamin yaratib ketishdi. Shu bois, biz ularning xotirası, ruhi poklari oldida doimo qarzdormiz”, deya ta‘kidlagandi. Shunday ekan, buni barchamiz birdek anglashimiz zarur. Albatta, bugna Kitob tumani hokimligi jiddiy e‘tibor qaratadi degan umiddamiz. Zero, yurt qahramonlarini unutishga haqqimiz yo‘q.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-646. 36191 nusxada bosildi. **Qog‘oz bichimi** A2. **Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turoı ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 00:25 Topshirildi — 00:30